



## Avstriya kompaniyasi Nurobodda zamonaviy korxona ochadi

Joriy yilning 2-3-may kunlari Toshkent xalqaro investitsiya forumi bo'lib o'tdi. Uchinchi bor o'tkazilgan forumda 93 davlatdan qariyb 2500 ishtirokchi qatnashib, O'zbekistonning iqtisodiy salohiyati, istiqbolli loyihibar bilan tanishdi. Forum yakunida 26,6 milliard dollarlilik kelishuvlar imzolandi.

Forumda viloyat hokimi E.Turdimov boshchiligidagi viloyatimiz vakillari ham xorijiy sarmoyadalar bilan istiqbolli loyihibarlar birgalikda amalga oshirish bo'yicha kelishuvlarga erishdi.

Jumladan, Xitoyning Shinjon Tianjin savdo sanoat palatasini rahbari Lin King boshchiligidagi delegatsiyasi bilan uchrashuvda ikki tomonlama savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar, turizm va qurilish sohalarida hamkorlik bo'yicha muzokaralar o'tkazildi.

"China Overseas Development Association" kompaniyasi rahbari Xe Chjenvey boshchiligidagi ishbilarmonlar bilan uchrashuvda viloyatimizda investitsiya loyihibarini amalga oshirish bo'yicha dastlabki kelishuvlarga erishildi. Xitoy kompaniyalarini tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulotlar bilan yaqindan tanishish maqsadida joriy yilning 27-28-may kunlari viloyatimiz delegatsiyasi Chin o'lkasida bo'lib o'tdigan "XIV Xitoy chet il investitsiyalar yarmarkasi"da ishtirok etadi.

Xitoyning Jiangsu provinsiyasida joylashgan "Jiangqiao Machinery Manufacturing" Co. LTD kompaniyasi raisi Chen Suyechjun bilan uchrashuvda viloyatimizda sement ishlab chiqarish korxonalarini ko'pligi uchun sementdan ikkilamchi mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etishga qiziqish bildirildi. Guandun provinsiyasi, Shenzhen shahridagi "Shenzhen Phoenix Goey Electronics Technology" Co. LTD kompaniyasi tomonidan viloyatimizda avtomobillar uchun universal elektron jihozlar ishlab chiqarish bo'yicha muzokaralar olib borildi. Guandun provinsiyasidagi "Yingde Longrun Agricultural Development" Co. LTD kompaniyasi bilan viloyatda choy qadoqlash fabrikasini tashkil etish bo'yicha takliflar bildirildi.

Avstriya davlatining "Lasselsberger" kompaniyasi vakillari bilan muzokaralarda Nurobod tumanida umumiyligi qiymati 120 million dollar bo'lgan qurilish aralashmalar, mikroksalit va keramogranit ishlab chiqarish loyihasini amalga oshirishni jadallashirish bo'yicha kelishuv imzolandi. Unga ko'ra, loyihaning birinchi bosqichida mikroksalit va quruq aralashmalar ni ishlab chiqarishni joriy yilning sentabru oyida boshlash bo'yicha kelishuvga erishildi.

**Sherzo SOBIROV,**  
viloyat investitsiyalar, sanoat va savdo  
boshqarmasi boshlig'ining  
birinchi o'rinnbosari.

## QIYOTdagি qiyosi yo'q o'zgarishlar

Yil avvalida viloyatimizdagи to'rt sektor hududidagi ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti og'ir to'rt mahallada "Obod xonardon", "Obod ko'cha" va "Obod mahalla" mezonlari ni joriy etish bo'yicha keng ko'lamlı ishlар boshlangandi.

Jumladan, viloyat prokurori boshchiligidagi 2-sektorga tegishli Ishtixon tumani Qiyot mahallasida ham aholi xonadonlardan boshlab hudud infratuylmasigacha bo'lgan muammolarga xechim topish, odamlar turmush tarzini yaxshilashga kirishgildi.

To'qqiz qishloqdan iborat, umumiy maydoni 224 hektar bo'lgan mahalladagi 1285 oilda 6330 nafar aholi istiqomat qildi. Tumandagi eng katta mahallalardan biri hisoblanasa, hududda aholi uchun munosib turmush sharoiti yaratilmagan, yillar davomida to'planli qolgan muammolarni aholi kayfiyatiga ta'sir ko'satish, ta'bir joiz bo'lsa, qiyotklarning ertangi kunga ishonchi ham o'ziga yarasha edi.

Ammo qish fasli bo'lishiqa qaramay, mahallani yangicha tizim asosida obod qishiga kirishgach, katta-kichik rahbarlar kelib, muammolarni o'rganishni boshlagach, odamlarda umid uyg'ondi.

– Dastlab xonadonbay o'rganish ishlari olib borildi, – deydi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining viloyatdagisi Xalq qabulkonusi mudiri M.Turdiyev. – Xatlov natijalar bo'yicha xonadonlarni obodonlashtirish, mahalla ijtimoiy-iqtisodiy infratuylmasini yaxshilash, bonyodkorlik ishlarni amalga oshirish, aholi bandligini ta'minlash hamda mahallani og'ir hudd toifasidan chiqarish bo'yicha 65 banddan iborat "Yo'li xaritasi" ishlab chiqilib, ijroga qaratildi.

Ijtimoiy daftarlarda ro'yxatda turgan 20 nafar fuqaroga 108 million so'mlik yordamlar ko'rsatildi, 10 nafar fuqaroga bank krediti olishda ko'maklashildi, 17 nafar shaxsga 106 million so'mlik asbob-uskunalar xard qilish uchun subsidiyalar ajratildi.

"Obod xonardon" mezonlari asosida ta'mirga muhitoj 6220 xonadan ta'mirlanib, obodonlashtirildi. O'ta og'ir sharoitda yashovchi, ehtiyojmand toifadagi 13 oilaning turarjoyi viloyat prokuraturasi tashabbusi bilan homiylik asosida joriy va kapital ta'mirlandi. Aholi tomorqalaridan unumli foydalananish



maqsadida 752 ta xonadonda fermerlar va homiylikda shudgorlash ishlari amalga oshirilib, bahorgi ekinlar ekildi.

Aholi bandligini ta'minlash maqsadida 2 nafar fuqaro doimiy ishga joylashtirildi, 16 nafar kasb-hunarga o'qitildi, 36 nafar fuqaro jamaot ishlariiga jalb etilib, 71 nafar fuqaroning o'zini o'zi band qiliishi, 17 nafranining tadbirkorlik faoliyatini boshlashiga yordam ko'rsatildi. Viloyat va tuman tibbiyot muassasalarining tajribali mutaxassislarini ishtirokida hududda chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rniklar yushtirilib, 24 nafar fuqaroning viloyat shifokoralarida davolanshita ta'minlandi. 11 nafar fuqaroga rehabilitatsiya-texnik vositalari yetkazib berildi, 1675 nafar qiyotlikka bepul dori-darmonlar tarqatildi.

Ijtimoiy daftarlarda ro'yxatda turgan 20 nafar fuqaroga 108 million so'mlik yordamlar ko'rsatildi, 10 nafar fuqaroga bank krediti olishda ko'maklashildi, 17 nafar shaxsga 106 million so'mlik asbob-uskunalar xard qilish uchun subsidiyalar ajratildi.

"Obod ko'cha", "Obod mahalla" mezonlari joriy etish yo'nalişidagi amaliy ishlari natijasida mahalla hududidagi ichki ko'chalarining 7 kilometri asfalt qoplamasi bilan joriy ta'mirlandi 2,7 kilometriga asfalt yotqizildi. Shuningdek, 35,2 kilometr tuproq yo'llarga qum-shag'al to'kildi. 1,7 kilometr

uzunlikda piyodalar yo'lagi barpo etildi. 5 ta transformator punkti yangidan o'rnatilib, 14 tasi kapital ta'mirlandi, 14,1 kilometr SIP kabel tortildi. Eski simyog'ochlar o'rniда 510 ta yangi temir-beton ustun o'rnatildi. Asosiy ko'chalarda 100 ta tungi yoritish chiroqlari qo'yildi.

Darvoqe, mahalladagi bonyodkorlik va obodonlashtirish ishlari jarayonida homiylik va hashar yo'li bilan yangidan mahalla binosi barpo etilib, "mahalla yettiligi" faoliyati uchun barcha shart-sharoitlar yaratildi. Mazkur binoning ikkinchi qavatida esa mahalla xotin-qizlar bandligini ta'minlash va ularga kasb-hunar o'rgatish maqsadida tikuchiliklari sexi faoliyati yo'iga qo'yildi. Aholining sport bilan shug'ullanishi uchun bir nechta sport maydonchalar, dam olish maskanlari tashkil etildi.

Bu kabi bonyodkorliklari ishlardan mahalladagi uchta umumta'l'm maktabi va bolalar bog'chalari ham chetda qolmadidi. Mazkur muassasalar ham joriy ta'mirlanib, bir qator muammolarni hal etildi. Aholiga sifati tibbiy xizmat ko'rsatish maqsadida eski olibay shifokorlik punkti qayta ta'mirlanib, zarur jinozlar bilan ta'minlandi, tez tibbiy yordam shoxobchasi tashkil qilindi.

Bundan tashqari, bir nechta savdo va maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalari ochildi. "Yashil makon" umummilliy loyihasi

asosida qarib 3 hektar maydonda 5 ta bog' tashkil etildi, 12 ming 700 tup mevali va manzaralari daraxt ko'chatlari ekildi.

O'tgan vaqt mobaynida mahallada xonadon madaniyati va aholi ma'naviyatini yushtirish maqsadida muntazam ravishda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, uch avlod uchrashuvlari o'tkazildi.

Xotira va qadrlash kuni arafasida mahalladagi qurilish-bunyodkorlik ishlari yakuniga yetib, bugun yangi mahalla binosi va boshqa obyektlarning o'chilish marosimlari o'tkazildi. Ushbu tadbirlar "Nuroniy" jamg'armasi respublika boshqaruvi raisi S.Turdiyev, viloyat va tuman hokimligi, viloyat prokururasi va sektor mas'ullari ishtirok etdi. Mehmoneh mahalla ahlini yangi inshootlar bilan tabriklab, inson qadrini ulug'lashga qaratilgan bu kabi tadbirlar yurtimiz bo'yab davom etishini ta'kidladilar. Shu yerda uch avlod uchrashuvlari o'tkazilib, faxriylarga ehtirom ko'rsatildi, shuningdek, mahalladagi qurilish-obodonlashtirish ishlardan faol ishtirok etgan quruvchi va bonyodkorlarga esdalik sovg'alarini topshirildi. "Eng obod xonodon", "Eng obod ko'cha" tanlovlari g'oliblari munosib taqdirlandi.

**Madina EGAMOVA,**  
Ishtixon tumanidagi 31-umumiyl  
o'rta ta'l'm maktabi o'qituvchisi.

Viloyat uchinchi sektor  
rahbari, IIB boshlig'i  
Rahmat Mamatov Urgut  
tumanida yoshlar bilan  
uchrashuv o'tkazdi.

Boshqarma boshlig'i yurtimida yoshlar uchun yaratigan imkoniyat va qulayliklar haqida gapirib, bundan samarali foydalanayotgan yigit-qizlar erishayotgan natijalar, jumladan, urgutlik champion yoshlar, fan olimpidalari va turli tanlovlari qolibrilari haqida o'z fikrlarini bildirdi. Shu bilan birga, yoshlikni beboslik deb o'yagan ayrim yoshlar tomonidan sodir etilayotgan huquqburzulariga va jinoyatlar, buning oqibatlariiga to'xtaldi. Yigit-qizlarning vaqtida unumli foydalananish, puxta bilim olish, kasb-hunar o'rganishga, jamiyatda o'z o'rnni topish uchun harakat qilishga da'vat etdi.

Uchrashuv qatnashchilari o'zlarini qiziqitgan masalalar, duch kelayotgan muammolarni yuzasidan boshqarma bosh-

Rahbar va yoshlar uchrashuvu:

## Probatsiya nazoratidagi 5 nafar shaxs ish bilan ta'minlandi



lig'iga murojaat qildi. Jumladan, Dinara Xudoynazarova ichki ishlar sohasi bo'yicha o'qish istagi borgiligi bildirdi. Samara-

nd davlat universiteti Urgut filiali talabasi Ibrohim Abdumominov to'lov-shartnomasi pulini to'lashda, Rayhana Xursandova tiku-

vchilik faoliyatini boshlashi uchun kredit ajratishda boshqarma boshlig'iidan yordam so'radi.

Har bir murojaat bo'yicha

mas'ullarga topshirilgan berilib, ijrosi nazoratga olindi.

Tadbirda urgutlik bir guruh yoshlarga ID-kartalar, Intzor Abdusattorovaga esa O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini tasdiqlovchi hujjat topshirildi. Shuningdek, kitobsev yoshlarga badiiy kitoblar jamlanmasi tuhfa etildi.

Maxsus harby texnikalar va jangovar ko'rgazmali chiqishlar, yoshlar tomonidan tayyorlangan hunarmandchilik mahsulotlari va rasmilar ko'rgazmasi, havaskor yoshlar tomonidan namoyish etilgan "Abdulhamid Cho'lp'on" spektakli tadbir qatnashchilariga manzur bo'ldi.

Uchrashuv doirasida boshqarma boshlig'i va yoshlar "Urgut" erkin iqtisodiy zonasidagi korxonalar faoliyati bilan tanishdi, bu maskanlarda mehnat qilayotgan yoshlar bilan suhbatlar uyushtirildi. Probatsiya nazoratidagi 5 nafar yosh iqtisodiy zonadagi ishlarga yo'llanma oldi.

bilan tanishdi.

- Musobaqa yuqori savyida, xalqaro talablar asosida tashkil etilgan, - deydi Qirg'iz Respublikasi jamoasi murabbiyi Risqeldi Mamatonov. - Yurtimizda 70 nafar karatechi ishtirok etyapti. Bahslar qizg'in kurashlarga boy bo'imoqda. Markaziy Osiyo championati qit'a birinchiliklari oldidan o'ziga xos sinov vazifasini o'taydi.

Bugun boshlangan yoshlar, o'smirlar va kattalar o'tasida o'tkazilayotgan Markaziy Osiyo championatida yurtimizning 350 nafar karatechilar bilan birga Qozog'iston, Turkmaniston, Tojikiston, Eron va Qirg'iz Respublikalaridan 800 nafardan ortiq sportchi ishtirok etdi.

- Musobaqa doirasida o'tkazilgan seminar har tomonlalama samarali bo'ldi, - deydi hamyurtimiz, xalqaro toifadagi referi Mirzohid Yo'idoshev. - Seminarida ishtirok etgan 7 valikimiz xalqaro toifadagi hakam sertifikatini oldi. Endi ular xalqaro maydonlarda nufuzli musoqabalarida hakamlik qilishi mumkin. Ushbu championat sport musoqabalarini bilan birga turizm yo'nalishida ham ahamiyatli. Ishtirokchilar bo'sh vaqtlerida Samarqandning diqqatga sazovor joylari

## Samarkand – Markaziy Osiyo championati mezboni



Samarqand shahrida sportning karate (WKF) turi bo'yicha Markaziy Osiyo championati bo'lib o'tdi.

Championat doirasida dastlab ushbu sport turi qoidalariga kiritilgan o'zgartish va yangiliklarga bag'ishlangan seminar tashkil etildi. Unda kiritilgan yangiliklarni batafsil tushuntirilib, belgilangan me'yoriy talablarni bajargan mutaxassislariga xalqaro toifadagi hakamlik sertifikatlarini topshirildi. Bugun boshlangan yoshlar, o'smirlar va kattalar o'tasida o'tkazilayotgan Markaziy Osiyo championatida yurtimizning 350 nafar karatechilar bilan birga Qozog'iston, Turkmaniston, Tojikiston, Eron va Qirg'iz Respublikalaridan 800 nafardan ortiq sportchi ishtirok etdi.

Karate (WKF) bo'yicha Markaziy Osiyo championatining ochilish marosimida viloyat hokimi o'rinnbosari Rustam Qobilov, Markaziy Osiyo karate federatsiyasi raisi Sarsenbay Abdullayevlar ishtirok etdi.

**A.ISROILOV.**



## Arzimas sabablar bilan ajralayotgan taqdirlar

Bugungi davrning eng dolzarb masalalaridan biri bu yosh oilalar o'rtasida ajrimlarning ko'payib borayotganligidir. Yoshlarning ajrashish yoqasiga kelib qolishi yoki oila buzilishiga sabab nima?

Ba'zi oilalarda moddiy yetishmovchilik sabab degan fikrlar mavjud. Bundan bir necha yillard oldin ajrimalar Toyloq tumanidagi fuqarolik ishlari sudida ko'rildi. Shu yerda ajrashish uchun sudga murojaat qilgan yoshgina yigit bilan suhbatlashgandim. Qizchali bo'lgan ekan. "Ota bo'lib siz, qizchaginzni ko'rgingiz kelmaydim?", dedim. Yigit yo'q, dedi. Uning aytishicha, ayoli o'z oilasini boshqalar bilan solishtirar ekan. Shunga sira ko'nikolmabdi. "Sizlar ro'zg'orga bir litr yog' sotib olar eksansizlar, mening dadam katta idishlarni yog'ga to'ldirib qo'yadilar", debdi. Turgan gapki bu uning eri va qayonasiga yoqmagan. Buning ustiga, kelinning tilla uzugi yo'qolibdi. Bu ham yosh oila turmushiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Keyin ularning taqdiri qanday bo'ldi bilmadim. Ammo arzimagan sabab va shubha-gumonlar bir oilaning darz ketishiga sabab bo'lgani aniq.

Urgut tumani markazi hamda chekka qishloq, mahallalarda yashovchi ajrashgan oilalarning ahvoli o'rganilganda ajrimalarga kattalarning, ya'n ota-onalarning o'rinsiz aralashuvi ham sabab bo'lganiga guvoh bo'ldim. Yoki hali ro'zg'or ishlariga uquvsiz, "ishlayman, o'qiyman, kasb o'rganaman" degan yosh qizlarni erta unashitish hollari uchrayotganligi ham sir emas. Ayniqsa, Urgut tumanining Kamangaron, G's, Ispanza, Sog'yo's kabi mahallalarida bu kabi holatlar avjiga chiqqan.

Ilm-fan, texnika rivojlangan davrda yashayapmiz. Odamlarning turmush darajasi ilgarigiga qaraganda anche yaxshi. Farzandalrimiz chet davlatlarda ishlayapti, o'qiyapti, shukr qilib yasha-sak bo'ladi.

Ammo nikohlarning buzilib ketishi, ikkala yoshning ikki tomoniga ajrab ketishi, norasida go'daklarning tirik yetim qolishlarini ko'rib, bu ularning shaxsiy ishi deya tomoshabin bo'lib turmasligimiz kerak-ku!

Bir oila hayotidan bir misol. Uzoq qarindoshlar quda-anda bo'lishdi. Ko'p

orzu havaslar qilinib, to'y-ma'rakalar o'tdi. Oilalar qarshi quda bo'lishgan. Birinchi yosh oilada uch nafr farzand, ikkinchisida esa bir nafr bola dunyoga kelgan.

Oradan bir yil o'tib qaynonaga kelining betgachoparligi, ro'zg'ori-ni toza - ozoda tutmasligi yoqabdi. Kelinning ko'chlarni mashinaga yuklab, ota uyiga tashlab qaytishdi. Qaytishda uylalmay-netmay, "Yana bizning qizimizni haydamang. Bularning taqdirida bor ekan-da. Hech murosaga keltirolmadik", deyishdi.

Farzandalrini yolg'iz katta qilib endi uzatdim, tinch yashayman degan sho'rlik ikkinchi xonadondagi qaynona indamadi. Alamini ichiga yutdi. Ammo zo'r orzu-havaslar bilan qarindosh-chilik rishtalarini uzmaylik, deya quda-anda bo'lgan xar qikki oila o'rtasiga sovuqchilik tushdi. Oradan sal vaqt o'tmasdan bu qaynona ham qudasiga achchiq qilib, kelinini haydadi. Ayoli va farzandini sevgan sho'rlik o'g'ilning qo'lidan hech narsa kelmadidi. Onasining ra'yiga qarshi borolmadi. Jigari, opasining ezilishi unga ham ta'sir qilgandir, ehtimol.

Mehr-oqibatimiz uzilmasin deya quda-anda bo'lgan aka-ukalar, opasingular farzandalari taqdirdiga loqaydilik bilan qarashadi. Tezroq orzu-havas ko'rish istagi yoki quda-anda bo'lsak, yanada jipslashamiz, degan tilak ularga tinchlik bermaydi. Yosh oilaning turmush tashvishlari ko'zga tashlanaver-gach, o'zlarini olib ochishadi. Butun mas'uliyatni jiyan keling, uning ota-onasi, yaqninlari zimmasiga yuklashadi.

Jamiyatimizning tinchligi, to'kisligi oilaga borib taqaladi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, barchamiz ajrashish arafasiga kelib qolgan oilalarni birlashtirishga harakat qilaylik. Yaratgan har bir oilaga o'z jutti bilan uzoq yillar ahil va baxtli yashashni nasib etsin. Ana shunda jamiyatimizda tirik yetimlar, yosh tul qolgan juvonlar soni ko'paymaydi.

Nazira HAMDOVA.

## Ipak yo'lidagi mamlakatlar mushtarakligi olimlar nigohida

"Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetida "SCIENCE AND INNOVATION" xalqaro ilmiy jurnali hamkorligida "Ipak yo'li til, adabiyot, tarjima, turizm va madaniy meros sohasi tadqiqida innovatsion yondashuvlar" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi.



Unda yurtimiz hamda xorijiy, jumladan, Turkiya, Koreya, Ozarbayjon, Tojikiston kabi mamlakatlardan 300 dan ortiq sohaning professor-o'qituvchilari, amaliyotchilar hamda yosh tadqiqotchilar ishtirok etdi.

Konferensiyada Ipak yo'li mamlakatlarda til, adabiyot, tarjimashunoslik, turizm, madaniy meros, xalqaro tajribalarni o'rganish orqali mamlakatimizning turistik salohiyasi-

tini ichki va tashqi bozorlarda keng targ'ib qilishi nijadallashtirish va shu kabi mavzu yuzasidan ilmiy va amaliy ishlarni olib borish masalalari ko'rib chiqildi.

- Konferensiya ishiga xorijiy mamalakatlardan 100 ga yaqin, yurtimiz olimlari tomonidan 300 ga yaqin maqolalar kelib tushdi va ulardan 259 ta eng yuqori ilmiy natija va tavsialarga ega bo'lganlari

saralab olinib, qabul qilindi, - deydi "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti professori Jo'liboy Eltazarov. - Konferensiyaga qabul qilingan har bir maqola uchun DOI raqam (bu global internetdagi elektron hujjatga berilgan raqam bo'lib, materiallarni qidirish va ulardan foydalananishni ancha soddalashtiradi) olindi hamda bir nechta xalqaro bazalarda indekslandi.

## Ikki operatsiya bittada amalga oshadi

- Mazkur markaz bilan 2017-yildan beri yaqin hamkorlikda ish olib boryapmiz, - deydi Osiyo endoskopik va laparoskopik jarrohlar jamiyatini bosh kotibi, Singapur kaminvaziv jarrohlik markazi direktori Devid Lomanto.

- O'sha yillarda endoskopik jarrohliklar kam ko'llanilib, asosan oddiy operatsiyalar amalga oshirilar edi. Endilikda bu jarayon mamlakatingizda yildan-yilga takomilashib, ularning soni ham ko'payib bormoqda. Bugun biz obdominal churroni zamonaviy usulda, yanayam kam jarohat yetkazadigan tarzda davolash masalalari bo'yicha tajriba almashdi, shu yerda ushbu operatsiya ko'rgazmali tarzda amalga oshirildi.

- 200 o'ringa mo'ljallangan markazimizda bir yilda o'rtaча besh mingga yaqin jarrohlik amaliyoti bajariladi, - deydi ixtisoslashgan bolalar xirurgiya markazi bosh shifokori Jamshid Shamsiyev.

- Bugungi kunda ularning 35 foizi zamonaviy usullarda (laparoskopik, torakalosko-

pik, endourologik) amalga oshirilyapti. Chaqaloqlardan tortib 18 yoshgacha bo'lgan bolalarga xizmat ko'rsatuvchi markazimizda zamonaviy operatsiyalar o'tkazish uchun barcha sharoit mavjud. Bunda yetti yil avval asosan oddiyroq operatsiyalar zamonaviy usulda o'tkazilgan



bo'lsa, bugunga kelib, o'pka, jigar exonokkoki, buyrak-tosh kasalliklari va boshqa ko'plab murakkab kasalliklar shu usulda jarrohlikka tavsiya etilmoqda. Ularni amalga oshirayotgan shifokorlarimiz avvalo, doimiy ravishda markazimizda tashkil etilayotgan shu kabi seminarlar-da tajriba almashmoqda. Qolaversa, ular har yili mutazam ravishda Yevropa davllarida, shuningdek, Janubiy Koreya, Turkiya, Malayziyada malaka oshirib kelmoqda.

Seminar ishtirokchilari Yaponiyaning Ogikubo jarrohlik klinikasi departamenti rahbari Noriaki Kameyama, Malayziyaning endoskopik va laparoskopik jarrohlar jamiyatini prezidenti Vimal Kumar va boshqa ko'plab mutaxassislar bilan tajriba almashdi, yangi bilimlarni o'zlashtirishdi.

- Mazkur markazda tashkil etilgan xalqaro doiradagi seminarlarda bir necha bor ishtirok etganman, - deydi Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Andijon viloyat filiali laporoskopik jarrohi Ilhom Ataxonov. - Bugun zamonaviy texnolog-

yalar rivojlanayotgan kunda jarrohlar doimiy ravishda o'z ustida izlanishi, yangiliklarni amaliyotga tatbiq etishi muhim ahamiyatga ega. Sababi, bu kabi operatsiyalar tufayli bemorga an'anaviy usuldagi operatsiyadan ko'ra anch'a kam jarohat yetkaziladi, tabiiyki, bu uning tezroq sog'ayishiga imkon beradi. Shuningdek, u shifoxonada ko'p muddat davomida o'rinni band etmaydi. Shu tariqa jamiyat ham, bemorni bunday amaliyotdan naf ko'radi. Hozir biz ikki tomonlama churroni bir vaqtning o'zida davolash bo'yicha yangiliklarni o'zlashtiriyapmiz. Bu xastalik an'anaviy usulda operatsiya qilinsa, bir necha oy muddat sarflanishi va ikkita jarrohlik qo'llanilishi kerak. Zamonaviy usulda esa bir martaning o'zida xastalik bartaraf etiladi. Tabiiyki, bunday usul bemorni uzoq vaqt reabilitatsiyaga muhajjalikdan ham asraydi.

Anjuman davomida mutaxassislar sohadagi boshqa yangilik va tadqiqotlar natijalari bilan ham tanishdilar, kelgusidagi hamkorlik yuzasidan fikrashidlar.

Guruh MO'MINOVA.

↓ 8 may – Xalqaro Qizil Xoch va Qizil Yarim oy harakatiga asos solingen kun

## Halokat bo'lishini kutish shart emas

Ayni kunlarda jahon hamjamiyati Xalqaro Qizil Xoch va Qizil Yarim oy Harakatining 161 yilligini nishonlamoqda. Shveysariyalik tadbirkor Anri Dyunanning tashabbusi bilan 1863-yilda tashkil etilgan ushbu jamiyat hozirgi kunda jahoning 196 ta mamlakatida Qizil Xoch yoki Qizil Yarim oy timsollar ostida faoliyat olib bormoqda.

O'zbekiston Qizil Yarim oy jamiyatini 1925-yilda tashkil etilgan va Xalqaro Qizil Xoch, Qizil Yarim oy jamiyatlarini Federatsiyasining teng huquqları a'zosi hisoblanadi. Jamiyat o'z ustaviga asosan aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash va birinchi yordam ko'rsatish asoslariga o'rgatish, o'z qaramog'idiagi fuqarolar va moddiy yordamga muhitoy kishilarga ijtimoiy-moddiy yordam berish, yoshlar o'rtaсиda sog'лом turmush tarzini targ'ib qilish, xalqaro insonparvarlik huquqlarini targ'ib etish va favqulodda holatlar oqibatida yaqinlardan ajralgan oilalarni birlashtirish kabi yo'nalishlarda faoliyat olib bormoqda.

Jamiyatning Samarcand viloyat tashkiloti tomonidan ham ushbu yo'nalishlarda bir qator ishlarni amalga oshirilmoqda. Jumladan, favqulodda vaziyatlar sodir bo'lish ehtimoliyuqor 62 mahalla wa ular hududidagi maktablarda o'quv va amaliy mashg'ulotlari o'tkazilib, favqulodda vaziyatlarda harakat qilish guruhlari tashkil etildi. Samarcand shahridagi Ko'ksaroy, Sayqal, Istiqbol, Mir Said Baraka, Sayqal, Hozir Sheroy nomli mahallalarda, Bulung'ur tumanidagi Amir Temur nomli, Istiqlol, Lal'mikor, Olmazor, G'o'bdi mahallalarida, Toyloq tumanidagi Gulobod mahallasida, Urgut tumanining Kenagas mahallalarida artezian quduqlar kovlanib, aholi uchun ichimlik va ekinlarni sug'orish uchun suv chiqarib berildi.

Tabiysi ofatlarning oldini olish va talafotlarni kamaytirish maqsadida joylarda 1100 tup mevali va manzarali daraxt ko'chatlari ekildi.

Jamiyatning viloyat tashkiloti qoshi-

da favqulodda vaziyatlarda mahalliy

darajada qutqarish va birinchi yordam ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lgan 162 nafr volunteer ko'ngillilar tayyorlandi.

Shuningdek, 3350 kishi favqulodda vaziyatlarda birinchi yordam ko'rsatish asoslariga o'rgatildi.

"Mehr-shafqat xizmati" guruhni qaramog'iga olingan wa moddiy yordam so'rab kelgan 2204 kishiga 839 million so'mdan ortiq pul mablag'i, oziq-ovqat mahsulotlari va xo'jalik buyumlarini tarqatildi.

O'zbekiston Qizil Yarim oy jamiyatini faxriylari, faollari, ko'ngillilar, ko'p sonli a'zolari va jamiyatni qo'llab-quvvatlab turgan homiyalarini Xalqaro Qizil Xoch va Qizil Yarim oy Harakatining 161 yilligi bilan tariklaymiz!

M.ARIPOVA,

O'zbekiston Qizil Yarim oy jamiyatini viloyat tashkiloti raisi.



Xususan, Polshaning Index Copernicus, Yevropaning Zenodo Zenodo hamda Open Aire, Rossiyaning Cyberleninka, Angliyaning Europub bazariga joylashtirildi va Google akademiya ilmiy qidiruv tizimida indekslandi. Konfrensiya materiallarining xalqaro bazalarda indekslanganligi avvalo, ulardan dunyoning ko'plab davlatlaridagi ilmiy tadqiqotchilar foydalanshingga imkon yaratilisa, ikkinchidan, universitetning xalqaro reytingini, qolaversa, mamlakatimizning xalqaro ilmiy hamjamiyatdagi o'rnnini yanada oshirishga zamin yaratadi.

Xalqaro konferensiya shu'ba yig'ilişlarda tilshunoslik va pedagogikaning dolzarb masalalari, tarjimashunoslikning global muammolari, turizm sohasini rivojlantrishning zamonaviy va xalqaro tamoyillari, madaniy meros obyektlarini asrab-avaylash va tanitishda innovatsion yondashuvlar mavzularida ma'ruzalar tinglandi.

Muhokamalarda bildirilgan tavsiyalar asosida taklif va xulosalar tayyorlandi.

Sel natijasida to'planib qoladigan suv monolit devor barpo qilindi, lotoklar o'natildi va quvurlar yotqizildi, suv yig'ish quduqlari kovlandi. Bulung'ur tumanining Lal'mikor, Kattaqo'r'g'on tumanining Javlon, Urgut tumanining Kenagas mahallalarida artezian quduqlar kovlanib, aholi uchun ichimlik va ekinlarni sug'orish uchun suv chiqarib berildi.

Tabiysi ofatlarning oldini olish va talafotlarni kamaytirish maqsadida joylarda 1100 tup mevali va manzarali daraxt ko'chatlari ekildi.

Jamiyatning viloyat tashkiloti qoshi-

da favqulodda vaziyatlarda mahalliy

darajada qutqarish va birinchi yordam ko'rsatish qibiliyatiga ega bo'lgan 162 nafr volunteer ko'ngillilar tayyorlandi.

Shuningdek, 3350 kishi favqulodda vaziyatlarda birinchi yordam ko'rsatish asoslariga o'rgatildi.

"Mehr-shafqat xizmati" guruhni qaramog'iga olingan wa moddiy yordam so'rab kelgan 2204 kishiga 839 million so'mdan ortiq pul mablag'i, oziq-ovqat mahsulotlari va xo'jalik buyumlarini tarqatildi.

O'zbekiston Qizil Yarim oy jamiyatini faxriylari, faollari, ko'ngillilar, ko'p sonli a'zolari va jamiyatni qo'llab-quvvatlab turgan homiyalarini Xalqaro Qizil Xoch va Qizil Yarim oy Harakatining 161 yilligi bilan tariklaymiz!

M.ARIPOVA,

O'zbekiston Qizil Yarim oy jamiyatini viloyat tashkiloti raisi.

2023-yil 25-avgustda Vazirlar Mah-kamasining "Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qtgan deb hisoblash to'g'risida" qarori qabul qilingandi.

## Ko'chmas mulkka bo'lgan huquq

uni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi qanday?



Unda ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishning yangi mexanizmlari, jumladan, ko'chmas mulklarini bo'lish va birlashitirshning tartib-taomillari asoslari belgilangan. Shuningdek, ayrim qarorlarga quyidagilarni nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan. Jumladan, ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish bilan bog'liq normativ-huquqiy hujjalarni tizimlashtirish va yagona hujjalarni birlashitirish. Jismoniy va yuridik shaxslarning ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlari yuzaga kelganligi, boshqa shaxsga o'tganligi, cheklanganligi va bekor qilinganligi faktini davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatish tartib-taomili belgilangan. Ko'chmas mulkni bo'lish, birlashitirish va ularning yangi chegaralarini belgilash bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatish tartib-taomili hamda ushbu xizmatlarini ko'satganligi uchun undiriladigan to'lovlari miqdori ko'rsatilgan. Davlat ro'yxatidan o'tkazilish, guvohnoma berilgan ko'chmas mulklarini elektron tarzda davlat reyestriga kiritish va undan ko'chirma berish, shu jumladan, mazkur xizmatlarni bepul amalga oshirish ko'rsatilgan.

**Mehrangiz HAKIMOVA,**  
**Samarqand shahar davlat xizmatlari markazi katta mutaxassis.**

Shamsi Usmonovning umri turfa voqealarga boy. Yozay desangiz, uncha-muncha kitobga sig'maydi. U hayotida niyat xolis bo'lsa, Allohnning o'zi yo'l beradi, degan hikmatning haqiqatligiga ko'p bor iqror bo'lgan. 2003-yilda otaxon yaqinlari, tengdosh do'stiari, shogird va hamkaslarini chorlab, 80 yoshini nishonlashni ko'ngliga tugib yurgandi. Shunday kunlarning birida boboni viloyat hokimi yo'qlayotganini aytishdi.

O'sha paytdagi viloyat hokimi quroniyini ochiq chehra bilan kutub oldi. Salom-alikdan so'ng "Shamsi bobo, sizning xalqimiz, Vatanimiz oldidagi xizmatlarinig katta. Yurtimiz, viloyatimiz ravnajiga qo'shgan hissangiz salmoqla. Shu tabarrush yoshda ham bizga kambarbasta, ko'makchi bo'lib, dala kezib, qimmatmi maslahatlarni berayotganining o'zi qahramonlik. Sizday tabarruk faxriyalarimiz borligidan faxrlanamiz. Sizni muborak 80 yoshingiz bilan tabriklayman", dedi.

Sh.Usmonov viloyat hokimi qabulidan boshi ko'kka yetib, quvonchi ichiga

## Elda e'zoz topgandi

sig'may qaytdi. Sevinmay bo'ladimi axir, viloyatning bиринчи rahbari izzat-ikrom ko'rsatib tursa, qilgan mehnatlarini e'tirof etib, olqishla, egzu tilaklarini bildirsa. Shu emasmi chinakam ehtirom, hurmat.

Sh.Usmonov haqiqatagan oddiy va samimiy inson edi. U 1923-yilda Qo'shrabotning chekka bir qishlog'i Chinoqda tug'ildi. Jo'shdagi 56-maktabda o'didi. Maktabni bitirishi bilan harbiy xizmatga, Ikkinchini jahon urushiga safarbar qilindi. Tankchi yordamchisi sifatida shiddati janglarning birida og'ir jarohat olib, bir yil gospitalda davolandi. So'ng yana frontiga kirdi. Belarus frontida, Polshada, Visla daryosi qirg'oqlarida jang qildi, Berlinni zabt etishda qatnashdi. Janggohlarda ko'rsatgan qahramonliklari uchun qator orden va medallar bilan taqdirlandi.

Urushdan qaytgach, avval Shaykontohur huquqshunoslik bilim yurtida, keyinchalik Samarqand davlat universitetining tarix fakultetida tahsil oldi. Mitan, Ishtixon, Qo'shrabot tumanlari xalq ta'limi bo'limlariga rahbarlik, Qo'shrabotning 56-maktabga direktoriq qildi. Maktabga rahbar bo'lgan yillarda 10 hektar bog', kichik chovchachilik xo'jaligi, issiqxonasi tashkil etdi. Natijada ko'pchilik e'tiboriga

tushdi. Ishchanligi va tashabbuskorligi tufayli uni 1962-yilda "Qo'shrabot" davlat xo'jaligi direktorligiga o'tkazishdi. Shu orada Samarqand qishloq xo'jalik institutida sirtdan o'qib, zootexnik mutaxassisligiga ega bo'ldi. Keyin yangi tashkil etilgan "Oktabr 50 yilligi" xo'jaligiga rahbar etib tayinlandi. Tuman suv tashkilotida rahbar bo'lib ishladi. Bu yerda ham 10 hektar tokzor, 3 hektar bog' yaratdi.

Insonning qo'li gul, qalbda ishtiyoyq bo'lsa, bu qo'llar nelarga qodir? Qanchadan-qancha qaqragan cho'llar bog'-rog'a aylandi. Kimsasiz dashtlar o'mida obod va go'zal qishloqlar paydo bo'ldi. Shamsi Usmonovning Respublika yaylovlar melioratsiyasi qurilish birlashmasining yordamchi xo'jaligidagi rahbarlik faoliyatida ana shunday ezzulgilliklar bilan to'la. U 1984-1994-yillarda 110 hektar qaqrab yotgan yerni o'lashtirib, 11 ta artezian quduq qazdirdi, 5 hektar bog', 3 hektar tokzor barpo qildi, 15 hektar yerga sabzavot mahsulotlari etkirdi va mo'l hosil yaratib, yordamchi xo'jalikni barakali maskanga aylantirdi. Shuningdek, yordamchi xo'jalikda 100 bosh qoramol, 500 bosh qo'yanib iborat chovchachilik hamda parran-dachilik fermalari tashkil qildi.

Sh.Usmonov pirov badavlat inson edi. Turmush o'rtoq'i Sharbat opa bilan 11



nafar farzandni voyaga yetkazdi. Ishi qanchalik ko'p bo'lmasisin, bolalariga shaxsiy ibrat ko'rsata bildi. Ularning qalbiga to'g'rilik, halollik, mehnatsevarlik urug'larini sepdil.

Shamsi bobo hayot bo'lganida 100 yoshni qarshilagan bo'lardi. Afsuski, u bundan 10 yil burun, 2013-yilda vafot etdi. Garchi, Shamsi Usmonov oramizda bo'lmasa-da, u goldirgan shirin xotiralar, ibratli ishlar ko'pchilikning qalbida muhranib qoldi.

**Amrillo AHMEDOV,**  
**Abdurusul SATTOROV.**

**U yaqinda – 23-martda  
66 bahorni qarshi  
olgandi. Afsuski, qa-  
dari shu ekan: bugun  
oramizda yo'q. Jo'yalı  
maslahatlarini olish,  
mazmunli suhbatidan  
bahramand bo'lish  
endi imkonisz, diydor  
qiyomatga qoldi.**

Taskin beradigani shuki, Rahima Abdurahmonova bir inson orzu qiladigan umri yo'lini bosib o'tdi. O'rta maktabdan so'ng muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi mutaxassisligini bo'yicha tahsil olgan Rahima opa o'qishdan ajralmagan holda tikuv fabrikasida tikuvchilik qilgan. 1980-yilgacha bo'lgan faoliyati o'zi tug'ilib o'sgan Payariq tumanida kechdi. Xususan, tuman xalq maorifi bo'limi laboranti,

## Ibratli umr yo'li

tumangaz idorasida kadrlar bo'yicha inspektori.

Hali aytganimiz, muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi mutaxassisligini egallab, sohada ish boshlagan. 1981-yilda Kattaqo'rg'on shahar 16-qurilish tresti muhandisi, 1982-yilda Payariq tumani qurilish-montaj birlashmasi kadrlar bo'limi inspektori vazifasida mehnat qilgan.

Keyinchalik 4 yil Payariq tumani ijroiya qo'mitasini loyiha bo'limi quruvchi-muhandisi, 7 yil "Uzmejkolxoziyoyek" kadrlar bo'limi boshlig'i sifatida ishlagan. Ayni shu davrda hisobchi-moliyachi mutaxassisligi bo'yicha sirtdan tahsil olgan. Bu esa keyinchalik soliq sohasida turli vazifalarda ishlashida muhim omil bo'ldi.



U tizimdagagi ilk faoliyatini 1994-yil viloyat davlat soliq boshqarmasi yetakchi mutaxassisligidan boshlagan. Pensiyaga chiqquniga qadar – 2013-yil 1-avgustgacha o'nga yaqin

lavozimda o'zini har tomonlhma ibratli kadr sifatida namoyon qildi.

Tizimdagagi 20 yillik faoliyat bir qarashda oddiy raqamlar, bosib o'tilgan mehnat davri. Ammo uning zamirida qancha mashaqqat, shu bilan birga, kasbga bo'lgan mehr tufayli tuyilgan zavq-shavq yotibdi. R.Abdurahmonova qayd etilgan davrda qanchadan-qancha yosh kadrlarning sohada o'z o'rnni topishiga ko'maklashgan.

Ayniqsa, uning ayol boshi bilan mustaqillikning o'tish yillaridagi qiyinchiliklarda marodonavor mehnat qilgani har qancha tahsising loyiq. Zotan, bugun gender tengligi va boshqa sabablar bilan xotin-qizlarni turli sohalarga jalb qilish uchun turli imtiyozlar berilayotgan bir davrda R.Abdurahmonovaning intiluvchanligi bir jasorat, deyish

mumkin.

Umuman, Rahima opa fidoyi soliqchi bo'lish bilan birga, namunalni oila beksi bo'lishini ham o'z o'rniiga qo'yan. Arzimagan qiyinchilik sabab ajrim yo'lini tutayotgan, yolg'iz farzandi tarbyasini udda qilolmayotgan yoshshlar uchun ibrat maktabi ham: u kishi turmush o'rtoq'i bilan 45 yil umrguzorlonlik qildi. Bu davrda 3 nafar o'g'il-qizni jamiyat va odamlarga foydasini tegadigan, el-yurt koriga yaraydigan shaxslar qilib tarbiyalab, voyaga yetkazdi.

Rahima opanining yana bir fazilati shundaki, lavozim majburiyatlari, oila tashvishlaridan ortib, jamoat ishlariga ham vaqt ajratja olardi.

Shu jihatdan, u kishining yorqin xotirasini yaqinlari, yoru do'sta va shogirdlari qalbida mangu qoladi.

**Bir guruh hamkasblari.**

## TANLOVDA QATNASHING!

Xalq deputatlari viloyat Kengashi huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab – quvvatlash jamoat fondi "Jamiyatda korupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish hamda jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda NNTlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab – quvvatlash" mavzusida davlat grantlarini ajratish uchun 2 – tanlovnini E'LON QILADI

dining [https://t.me/samarqand\\_jamoat\\_fondi](https://t.me/samarqand_jamoat_fondi) de telegram kanalida joylashtirilgan shaklda to'ldirilgan davlat granti loyihasi uchun ariza.

3. Oxirgi o'zgartish va qo'shimchalar bilan davlat ro'yxatidan o'tgan nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarining nizomi nusxasi.

4. Tashkilotning davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi guvohnoma nusxasi.

5. Agar loyihami amalga oshirish litsenziyalanadigan faoliyatni talab qilsa, unda litsenziyaning nusxasi.

6. Manfaatdor davlat va jamoat tashkilotlarining tavsiya hamda qo'llab-quvvatlash xatlari.

Bitta loyiha uchun ajratiladigan grant miqdori – **60 million so'mgacha.**

Hujjalat **2024-yil 3-maydan 3-iyungacha** har kuni (**dam olish va bayram kunlaridan tashqari**) saat 9-00 dan 18-00 gacha qabul qilinadi.

Tanlov bo'yicha hujjalatlar muhurlangan konvertni (A4 format): 140107, Samarqand shahri Spitamen shoh ko'chasi, 159-a"-uy manziliga "Nodavlat notijorat tashkilotlari va Do'stlilik uyi" binosi (110-xona), "Xalq deputatlari viloyat Kengashi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondiga" deb ko'rsatilgan tartibda yuborilishi shart.

**Davlat granti ajratish uchun quyidagi hujjalat taqdim etiladi:**

1. Tashkilot rahbari tomonidan imzolangan va muhr bilan tasdiqlangan kuzatuva xati.

2. Viloyat Kengashi huzuridagi jamoat fon-

## AVTOMASHINA SOTILADI!

"AITB IPAQ YO'LI UMAR MINTAQAVIY FILIALI"ga tegishli bo'lgan 2017-yilda ishlab chiqarilgan, oq rangli, davlat raqami 30 980 YAA bo'lgan, "Nexia"-3 rusumli avtomashina sotiladi.

**Murojaat uchun telefonlar:** (+99878) 210-06-50, (+99899) 777-46-00.

**Manzil:** Samarqand shahri, Dahbed yo'li ko'chasi, 14-uy.

### DA'VOLAR BO'LSA

Samarqand shahridagi «TEZPAY» mas'uliysi cheklangan jamiyat (STIR: 307675444) o'z tashkiliy-huquqiy shaklini «TEZPAY» aksiyadorlik jamiyatiga o'zgartiradi. «TEZPAY» aksiyadorlik jamiyat «TEZPAY» mas'uliysi cheklangan jamiyatining barcha huquq va majburiyatlari bo'yicha huquqiy vorisi hisoblanadi.

Shu munosabat bilan unga bildiriladigan barcha da'volar gazetasi e'lon chop etilgach, bir oy davomida qabul qilinadi.

**Manzil:** Samarqand shahri Sattepo maskani Turkiston ko'chasi, 157-uy.

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyat bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Shaxidov Siroj Aglyamovichga (2013-yil 1-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyat bilan shug'ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Ziyayev Mamatkul Ibadovichga (2013-yil 3-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Samarqand shahri Nodirabegim ko'chasi, 5/1-uy.

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyat bilan shug'ullanuvchi notarius Nishonova Umida Ismatillayevna notarial idorasida marhum Marupov Shaxob Jumayevichga (2021-yil 25-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Nishonova Umida Ismatillayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Samarqand shahri Rudakiy ko'chasi, 132-uy, 2-xona.

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyat bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida

